

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O‘T TOSH KASALIGINI ZAMONAVIY USULLARDA DAVOLASHDA HAMSHIRANING O‘RNI

Babayeva Madina Sabirovna

Pastdarg‘om Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi Hamshiralik ishi fani o‘qituvchisi:

Tanikulova Linora Rayim qizi,

Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi
texnikumi Valeologiya fani o‘qituvchisi:

Shaymatova Muhabbat O‘ktamovna

Asab va ruhiy kasaliklar fani o‘qituvchisi

Anatatsiya:

Ushbu maqolada o‘t tosh kasaligini kelib chiqish sabablari, asoratlari oldini olish hamda zamonaviy usullarda davolash haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xoletsistit, peritanit, perforatsiya, disfunksiya, distrofiya, fosfolipid, letsitin, Xoletsistoektomiya, laparoskopik, Traditsiyon, Laparatomiya.

THE ROLE OF THE NURSE IN THE TREATMENT OF GALLSTONE DISEASE IN MODERN METHODS

Anatation:

This article contains opinions on the causes of gallstone disease, prevention of complications, and modern methods of treatment.

Key words: Cholecystitis, peritanitis, perforation, dysfunction, dystrophy, phospholipid, lecithin, Cholecystectomy, laparoscopic, Tradition, Laparotomy.

O‘t-tosh kasalligi — xolesterin yoki bilirubin metabolizmining buzilishi natijasida o‘t pufagi va o‘t yo‘llarida toshlar paydo bo‘lishiga olib keladigan gepatobiliar tizimdagi safroning sintezi va aylanishi buzilishi bilan xarakterlanadigan kasallik.

O‘t-tosh kasalligi o‘lim ehtimoli yuqori bo‘lgan og‘ir asoratlarga olib kelishi tufayli xavfli hisoblanadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Hozirgi kunda O't tosh kassaligini davolash va tashxislash uchun zamonaviy asbob uskunalar va yetarlicha bilimli tibbiy hodimlar bor va ularni o'z vaqtida davolash asoratlarini oldini olish endi asosan bemorni tibbiy madaniyati muxum bo'lib qoldi. O't tosh kassaligi bu o't yo'llarida va o't pufagida toshlarning paydo bo'lishi etologik asosan 3 ta asosiy sababi bor. O't suyuqligining dimlanishi va moddalar almashinuvining buzulishi va o't qopining yaliglanishi. O't qopining ylig'lanishi bu xoletsistit deyiladi buni quydagi klasifikatsiyasi bor.

O't suyuqligi tarkibi xolesterin, biuribin, qaltsiy tuzlaridan, o't kislatasi va fasilipid(letsitin)iborat. O't suyuqligida bu moddalarning miqdori har xil bo'ladi. Toshning miqdori 1 -2mm dan 3-5sm gacha bo'lishi mumkun. Tosh xosil bo'lishi jarayoni moddalar almashish jarayoni buzulishi o't qopidagi mikroblarning meyoridan oshishiga va mahaliy imunitetning pasayishi bilan boshlanadi buning natijasida o't qopining devorining yalig'lanishi va epiteliysining ko'chib tushishi va shilliq maxsulotlari o't suyuqlik bilan aralashadi qopidagi o't suyuqligining chiqarilishi yani o't qopining evaqulyatsiya jarayoning pasayadi va o't qopida o't suyuqligining turib qolishi natijasida o't tarkibidagi moddalarning kantsentratsiyasi o'zgaradi natijada o't tarkibidagi suyuqlik kamayadi va o't tarkibidagi letsinin, o't kislatasi, xolestirin kantsentratsiyasi oshib ketadi va natijada o'tning litogenlik xususiyati oshadi va tosh paydo bo'ladi shuni bilib qo'yingki xech qachon sog'lom o't qopida tosh xosil bo'lmaydi tosh xosil bo'ldimi demak o't qopi funksiyasi (disfunksiya) buzulgan. Tosh xosil bo'lishida moddalar almashinuviga sabab bo'ladigan omillar ratsiyanol ovqatlanishning yo'qligi, kam xarakatlik, semizlik, kandli diabet, gemalitik anemiya sabab bo'ladi.

O't-tosh kasalligi rivojlanishi uchun xavf omillari quyidagilardir:

- Keksa va qari yosh;
- Xolesterin va bilirubin almashinuviga ta'sir qiladigan preparatlar qabul qilish (fibratlar, menopozda estrogenlar, seftriakson, okreotid);
- Genetik omillar (onada o't-tosh kasalligi bo'lishi);
- Ovqatlanish buzilishi (semizlik, tezda ozib ketish, ochlik, xolesterin va yuqori zichlikli lipoproteidlar darajasining ortishi, gipertriglitserinemiya);
- Ko'p sonli homiladorliklar;
- Metabolik kasalliklar (qandli diabet, fermentopatiyalar, metabolik sindrom);
- Oshqozon-ichak trakti a'zolari kasalliklari (Kron kasalligi, o'n ikki barmoqli ichak va safro yo'llari divertikullari, o't yo'llarining infeksiyasi);



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

• Operatsiyadan keyingi vaziyatlar (oshqozon rezektsiyasidan, o'zakli vagoektomiyadan so'ng).

O't tosh kassaligi boshlanishida simptomsiz bo'lishi mumkin qachonki tosh paydo bo'lib devorga sanchulgan bemaor to'yib yog'li ovqat yeganda o't qopi birdaniga qisqaradi va o'sha payidga tosh xam migratsiya bo'ladi va devorga sanchiladi o'shanda kuchli ogriq bo'ladi. Og'riq asosan o'ng qovirga yoyida va og'riq orqa o'ng kurak uchiga beradi og'riq sanchuvchi va kuchli bo'ladi.

O't tosh kasaligini tekshirish eng maqbul usullari bu UZI tekshiruvini hisoblanadi. Qo'shimcha tekshiruv usullari KT, MRT.

O't tosh kassaliklarini davolash xirurgik va dorilar bilan davolash. Dorilar bilan davolash toshni eritish va o't qopini yaliglanishga qarshi va moddalar almashinuvini yaxshilashga va ekstrokarpal zarb-to'lqinli litotripsiya turlari lekin bu usul to'la sog'ayib ketish juda qiyin jarayon chunki o't qopi allaqachon distrofik o'zgarishlar bo'lgan bo'ladi shuning uchun yana o't qopida tosh xosil bo'ladi. Shuning uchun eng maqbul usul xirurgik usulda xoletsitoektomiya qilish radiqal davo xisoblanadi. Xirurgik davolashni bir necha usullari bor.

1.Traditsiyoniy xoletsistoektomiya o'rta va yuqori yoki yonbosh laparatomiya.

2.Videloparaskopik xoletsitoektomiya.

3.Ochiq laparaskopik xoletsitoektomiya. Bularing ichida eng afzali videolaparaskopik xoletsistoektomiya bemaor kam qon yuqotadi va kam travma oladi asosan semiz kassalarda ancha qulaylik beradi va albatda kosmetik tarafdin ham ancha foydali hisoblanadi va operatsiyadan keying churalar xosil bo'lishi oldini olgan bo'lasiz va kasal tezda oyoqqa turadi.

O't-tosh kasalligi profilaktikasi yuqori xolesterinemiya va bilirubinemiyaning rivojlanishiga, safro dimlanishiga hissa qo'shadigan omillardan yiroq bo'lishga asoslanadi. Muvozanatli ovqatlanish, tana vaznini me'yorlashtirish, muntazam jismoniy faollikda bo'lish va faol turmush tarzi metabolik kasalliklardan qochish imkonini beradi, biliar tizimning patologiyalarini (diskineziyalar, obturatsiyalar, yallig'lanish kasalliklari) o'z vaqtida aniqlash va davolash o't pufagida safro dimlanishi va cho'kma miqdorini kamaytirish imkonini beradi. Tosh shakllanishiga irsiy moyilligi bo'lgan kishilar xolesterin almashinuvini va safro chiqarish tizimining holatiga alohida e'tibor berilishlari kerak.

O't pufagida toshlar mavjud bo'lsa, o't kolikalarini oldini olish uchun qat'iy parhezga rioya qilish (taomnomadan yog'li, qovurligan taomlar, qandolat kremlari, shirinliklar, spirtli va gazli ichimliklarni chiqarib tashlash), tana vaznini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

normallashtirish va yetarli miqdorda suyuqlik ichish tavsiya etiladi. Konkrementlarning o't pufagidan o't yo'llariga harakatlanishi ehtimolligini kamaytirish uchun uzoq muddat egilgan holda ishlash bilan bog'liq kasb tavsiya etilmaydi.

Xolelitiaz rivojlanishi prognozi toshlarning shakllanish tezligiga, ularning kattaligi va harakatlanishiga bevosita bog'liq. Ko'pchilik hollarda o't pufagida toshlar mavjudligi asoratlar rivojlanishiga olib keladi. O't pufagining jarrohlik yo'li bilan muvaffaqiyatli olib tashlanishi — bemorlarning hayot sifati uchun sezilari oqibatlersiz shifo topish garovidir.

Xulosa qilib aytganda agarda kimdadir O't tosh kassaligi borligini bilsa uni tezroq davolash zarurligini bilib qo'ygan maqul chunki bu kasalik bemor yoshi oshgandan keyin qushmcha kassaliklar oshib boradi u payitda bemorni operatsiya qarshi ko'rsatmalar paydo bo'ladi yoki birdaniga o't qopi perforatsiya bo'sa keyin peritanit paydo bo'ladi bu jarayon tezlik bilan operatsiya qilingandayam bemor axvoli juda og'ir xolatda qoladi. Mana shu sababli bemorlar bu kasalikdan xolok bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.N.Buraya. «Sog' va kasal bola parvarishiga doir amaliy mashg'ulotlardan qo'llanma». –T.: «Meditsina», 1989.
- 2.T.Umarova, M.Ibrohimova. «Hamshiralik ishi». Qo'llanma. –T.: «Qatortol-Kamolot», 1998.
- 3.M.S.Ziyayeva, I.Pirimbetova. «Hamshiralik ishi mutaxassisligi bo'yicha amaliyot standartlari». –T.: Abu Ali ibn Sinor nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001.
- 4.U.Z.Qodirov va boshqalar. «Bolalar fiziologiyasi». –T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1999.

